




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

ISHTIXONDA YASHOVCHI ETNIK ARABLAR

ETHNIC ARABS LIVING IN ISHTIKHAN

Sadoqat RAJABOVA,

ToshDO'TAU tadqiqotchisi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GMOX4363

Annotation. *The article explains with scientific and theoretical data when the Uzbekized ethnic Arabs living in the Ishtikhan district of the Samarkand region began to live in this area, where the roots of these ethnic Arabs go, what language they originally spoke, what dialects of the Uzbek language they speak now, whether they still speak their native Arabic, and many other questions.*

Key words: *Arabs, ethnic Arabs, dialect, Zarafshan oasis, Miyonkol, Ishtikhan, Samarkand.*

Bugungi kunda o'zbek xalqining ajralmas bir qismi hattoki urug' sifatida keltiriladigan arablar bundan o'n to'rt asr oldin arab tili va islom dinini yurtimizga yoyish maqsadida kirib kelgan va keyinchalik mahalliy aholi bilan birgalikda yashab qolgan. O'zlarining bilim va hunarlarini mahalliy aholiga o'rgatib o'zlari ham ulardan ko'p narsalarni o'rganishgan. Ular o'z tillarini saqlash maqsadida mahalliy aholidan alohida yashaganlar. XX asrdagi siyosiy jarayonlar sabab mahalliy aholiga singib, keyinchalik o'z tillarida so'zlashmaganligi sababli arab tilini unutishgan. Bugungi kunda O'zbekistonda yashovchi arablarni juda ozchilik qismi arab tilida so'zlashadi.

Samarqand viloyatiga arablarning ko'chib kelib, yashab qolishi VIII-X asrlarga borib taqaladi. "X asr geografлари Samarqand qishloqlarida arablar ham yashaganini qayd etganlar". [Rajabov, 2012.72]

Ishtixon va Pastdarg'om tumanlariga ham mana shu davrlarda va keyinchalik XIX asr oxirlariga kelib taalluqli manbalarda istiqomat qiluvchi arablarning mahalliy aholiga singishib, asosan, o'zbek, qisman tojik tilini o'zlashtirgani, o'z ona tilini esa unutayotgani qayd etilgan. [Chikovani. 1988. 3.]

"O'rta Osiyo arab tili nafaqat arabshunoslar va somiyshunoslarni, shu bilan birga umumiy tilshunoslik masalari bilan qiziquvchilarni ham jalb etmay qolmaydi" [Chikovani. 1988. 4.]

Ishtixon tumani ikki daryo oraliq'ida Miyonkul orolida Zarafshon vohasida joylashgan bo'lib, bu hududda yashagan arablar, asosan, ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarda qisman tadqiq qilingan yoki umuman tadqiqot obyektidan chetta qolib ketgan. O'zbeklashgan etnik arablarni o'rgangan olimlarning aksaryati diqqat e'tiborini Qashqadaryo va Buxoro arablariga qaratgan. Ularning yashash tarzi va tili, etnografiyasini tahlil qila turib Samarqand viloyatining shahar hududi va uning atrifida yashovchi hamda Kattaqo'rg'on hududida istiqomat qiluvchi arablar haqida qisman ma'lumot berib o'tgan. Ishtixon va unga chegaradosh Pastdarg'om hududida yashovchi arablar haqida esa juda ham oz ma'lumotlarni uchratamiz.

XIX asr rus sayyohlari orasida A.D. Grebenkin o'zining Zarafshon vohasidagi arablar haqidagi maqolasida arablar haqida "Ularning tili - o'zbekcha. Ular Angar (Darg'om) tumani va Kattaqo'rg'onga tutashib ketgan dashtda yashaydilar" deydi. [Grebunkin, 1872.113-114] Keltirilgan ma'lumotdan ko'rinib turibdiki, A.D. Grebenkin ta'riflagan hudud Ishtixon tumaniga to'g'ri keladi. Ularning tili o'zbekcha eng yoshi ulug' respondent 96 yoshli Nazarova Nasvoli momodan ota-bobolari arab tilida gaplashganmi yo'qmi deb so'raganimizda u kishi arab tilida gaplashganligini eslolmasligini esini tanigandan buyon o'zbek tilida so'zlashganligini aytdi. Ko'pgina shu hudud aholisi ham aynan mana shu so'zlarni tasdiqlashdi.

“A.D. Grebenkinning qayd etishicha, arablar orasida yarim ko'chmanchilar va dehqonlar ham bo'lgan. Nisbatan boyroq arablarda 350 tagacha, qolganlarida o'rtacha 100 bosh atrofida qo'y bo'lgan. Samarqand arablari Og'oliq (Ohalik) tog'i va Mironqul va Qodirberdi ko'li atroflarida, Kattaqo'rg'on arablari esa Chimboy, Jomgacha ko'chib yurganlar. Bu esa ularning turmush tarzida chorvachilik xo'jaligi ustuvor bo'lganligini ko'rsatadi”. [Rajabov, 2012.168].

“1900-yilda N.F.Sinyakovskiy Zarafshon vohasidagi aholi manzillari nomlarini olib chiqqan. Uning ro'yxatida 2800 dan ortiq qishloq nomlari qayd etilgan. Mazkur qishloqlarning 78 tasi Arab nomi bilan bog'liq bo'lgan qishloqlardir [Qorayev, 1979.12-13].

Samarqand viloyati arablari o'z tillarini saqlab qolmaganlar bu haqda olim I.I.Zarubin quydagilarni yozadi: “Samarqand viloyatida ko'proq, shuningdek, Buxoroning ba'zi qismlarida nisbatan kamroq saqlanib qolgan arablarning til bo'yicha turkiylar guruhiga qo'shishga to'g'ri keladi. Binobarin, o'zbeklar orasida yashab, ular o'z tillarini unutganlar va uni o'zbek tiliga almashtirganlar (Buxoro arablari ayrim joylarda tojik tilini qo'llaydilar, ba'zi mavzelarda esa hali o'z tilini saqlagan).

O'zaro ona tilini unutgan bo'lishiga qaramay Samarqanddagi arablar, aytish joizki, milliy o'zligini qabilaviy bo'linishini va ba'zi bir maishiy xususiyatlarini saqlab qolgan”. [Rajabov, 2012.177-178.]

Samarqand viloyatidagi arablar, xususan, “Kattaqo'rg'on uездidagi keksa arablarning xotirlashicha, shuningdek, ota-bobolaridan eshitgan so'zlarini keltirishlaricha, kam deganda 100-150 yil avval arablar o'z tillarini unutganlar va o'zbekcha gaplashishga o'tganlar”. [Rajabov, 2012.182.]

“A.D. Grebenkinning Samarqand Okrugining Kattaqo'rg'on qismida yashovchi arablar haqida ma'lumot berganida, ularning qarindoshlari Qarshi okrugining g'arbiy qismida yashashlarini, ular yaxshi otlar va alohida zotdor qo'ylari bilan mashhur ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga u qarshi arablari o'zaro buzilgan arab tilida gaplashadilar”. [Rajabov, 2012.169.] Kattaqo'rg'on arablarini “parg'ozlari arablar”, “qarshilik arablar” deb atashadi. O'zlari esa nasabini “qurayshiy” qabilasiga mansubligini aytishadi.

Samarqand viloyati Ishtixon tumanida istiqomat qiluvchi arablar arab tilini bilishmaydi va ota-bobolari ham o'zbek tilida gaplashganliklarini aytishadi. Respondentlardan bu hududda arablar qachondan buyon istiqomat qilishini so'raganimizda ko'pchiligi bilmasligini aytishdi. Respondent Raimov Rahmat bobo ota-bobolaridan eshitganlarini quyidagicha so'zlab berdi: “Äräbñanägä kelgän äräblär üç xıl körinişdä bogan. Birinçi körinişlari bajnägi dinni qabil qımejman men müsılman dinini dip äräbistannan qaçıp çixp kegänläri barda, ulardi manov qu:rçaqqa sıyinejkan äräblär dejidi. A"vali ozlarini qu:vrçaxları jām bar dejidi.Ulux mamada bar dejimidi Gāžāk? Äbdillā büväläridä bar dejidi. Ular dinni qabil qımajmiz müsırman dinini dip äräbistandan qaçıp çiqqanlarda. Kejin.. enni bizärām paqat prasta eşitkänimiz...

kejin adamlardı müsırman dindi kiritiş uçun, müsırman dinni qabil qılış uçun dävät qıp kegän äräblär bogan. Äräblärdän mani Sämärqanda sähabälärdän bir kişi jatıptı. Päjyambarımızdı eñ jaqın ayınlaridan bešta ayınlaridan bittasi üçinçisi Husan ibn Abbas Şahizında boyan. Anı u haqıqij sähabä bogän. Päjyambarımız bilan birgä jäsägän. Uni müşriklär oldıramız dip quvyan pilläsida şu qabrga kirpketkän häligidän Şahizında buvaga enni bizär şu mämälärdän oqıyanmız, eşitkänimiz. Äşünnän tä qıjämätkäçä zindänbänd şah dejilättä u Şahizındada....

Birinçi kegän äräblär dindi qabil qımejmiz dip kegän qu:rçaqqa uña-muña sıyinejdigän äräblär

Ikkinçi äräblär bajayılardı quvıp kegän äräplär

Üçinçisi esä müsırman dinini tärqatış uçin kegän äräblär

- Endi ulardı kegänigäjam üç juz, tort juz jil boljaptı”.

Aholining ta'kidlashicha, o'zlarining ota-bobolari mana shu davrlarda kelib joylashib, o'troqlashib bugungi kunda o'zbeklar bilan singishib bir butunlikda hayot kechirmoqda.



Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Bugungi kunda Ishtixon Arabxona, Ulug‘ qishloq va Ravot qishlog‘ida istiqomat qiluvchi arablar ushbu hududga X asrlardayoq yashab boshlashgan yoki keyinchalik Kattaqo‘rg‘on tumanida istiqomat qiluvchi arablarning Pasdarg‘om tumani Chimboy dastlari orqali ko‘chmanchi hayot kechiruvchi keyinchalik o‘troqlashgan arablarning joylashib qolganligidan ushbu hududda arablar mavjudligining guvohi bo‘lamiz. Arablar dastlab o‘zlari bosqinchilik yurishlarini uyishtirgan davrda mahalliy adabiy til bo‘lgan qarluq lahjasini o‘zlashtirib va shu tilda so‘zlashganlar. Bu haqda tarixchi etnograf R.Rajabov “...arablarning asosiy qismi o‘zbek adabiy tiliga yaqin shevada so‘zlashadilar. Shu bilan birgalikda, mazkur shevada o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, o‘zbek adabiy tili qadimgi turkiy tilning qarluq lahjasi asosida shakllangan bo‘lib, mazkur lahjada Qoraxoniylar”davrida (840-1212) mintaqada keng yoyila boshlagan edi. Ming yillar mobaynida mamlakatimizning markaziy va janubiy hududlarida yashab kelayotgan arablar ham aynan mazkur lahjaga xos xususiyatlar ustuvorlik qilishi sezilib turadi” [Rajabov, 2012.154].

Ishtixon tumanidagi etnik arablar shevasida ham tarixiy –etnografik unsur bo‘lgan bu jihat yaqqol sezilib tursada, ammo bu hudud shevasini qarluq lahjasi deyolmaymiz. Chunki atrofdagi aholi qipchoq lahjasida so‘zlashganligi uchun qipchoq lahjasining elementlarini o‘ziga singdirgan. Ammo “ž”lovchilik xususiyati bundan mustasno hisoblanadi.

Qiyoslang: Samarqand qipchoq shevalari: žigit, žoldaš, žaman, žür [Rajabov, 1977. 36]; Ishtixon etnik arab shevalari: jigit, joldaš, jaman, jür; o‘zbek adabiy tili: yigit, yo‘ldosh, yomon, yur. Ammo adabiy tilga muvofiq so‘z boshida ž undoshining qo‘llanishi kuzatiladi: žijdä (jiyda), žändä (janda), žün (jun), žindi (jinni), žüväs (juvaz), žijän (jiyan), žälä (jala).

Arabxona, Ulug‘ qishloq, Ravot qishloqda istiqomat qiluvchi aholi nutqida “ž” lash kuzatilmaydi. Atrofdagi Qozoq ota, Uyg‘ondi, Borzuvon, Qurilish, O‘pka va boshqa qishloqlar sof qipchoq lahjasida so‘zlashishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Поливанов Е.Д. Вокализм говора города Самарканд // Доклады АН. – М., 1928. – № 14.
3. Х.Дониёров. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Т., 1979.
4. М.Валиев. Ўзбек тилининг Найман шеваси. – С. 1963.
5. Н.Ражабов. Ўзбек тилининг ғарбий Самарканд шевалари. – С. 1977.
6. В.Эгамов. Самарканд областининг Ғаллаорол шеваси. – С. 1954.
7. З.Тиллаева. Самарканд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари. – С., 2023.
8. Гребункин А.Д. Мелкие народности Зарафшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу политехнической выставки. Вып.2. – М., 1872.
9. Қораев С. Этнонимика. – Т.: Ўзбекистон, 1979.
10. Ражабов Р. Ўзбекистондаги араблар тарихи ва этнографияси. – Т., 2012
11. Ражабов Н. Ўзбек тилининг ғарбий Самарканд шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.
12. Чиковани Г.Г. Морфологическая структура Кашкадарьинского диалекта арабского языка. – Тбилиси. 1988.